

TERMIZ VA CHAG‘ONIYONNING IJTIMOIIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

Xurramov Xamid Bobokul o‘g‘li

Termiz davlat universiteti, tayanch doktoranti

xamidxurramov800@gmail.com

ORCID ID:0009-0000-41338532

Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya: XIV-XV asrlarda Amir Temur va Temuriylar davrida Movorounnahr, balki eng chekka hududlar sanalgan Termiz va Chag‘oniyon katta o‘rin tutadi. Bu hududlar Amudaryo bo‘yidagi muhim savdo-sotiq, hunarmandchilik, madaniy markaz sifatida o‘rni beqiyos. Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi munosabatlarda ham muhimdir. Amir Sayyid Baraka ham shu hududda ilk bor Amir Temur bilan uchrashuvi ro‘y bergan. Amudaryoning Termiz oldidagi kechuvi ham savdo-sotiqda ham roli ortgandi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Amir Husayn, Amir Sayyid Baraka, Termiz, Chag‘oniyon, Amudaryo, Termiz sayyidlari, Movorounnahr, Xoja Alovuddin Attor, Zafarnoma.

Abstract: During the reign of Amir Timur and the Timurids in the 14th-15th centuries, Movorounnahr, perhaps the most remote regions, Termez and Chaghaniyan, played a significant role. These regions played an incomparable role as important trade, crafts, and cultural centers along the Amu Darya. They were also important in the relations between Amir Timur and Amir Husayn. Amir Sayyid Baraka also had his first meeting with Amir Timur in this region. The passage of the Amu Darya in front of Termez also increased its role in trade.

Keywords: Amir Temur, Amir Husayn, Amir Sayyid Baraka, Termez, Chaghaniyan, Amu Darya, Sayyids of Termez, Movorounnahr, Khoja Alovuddin Attar, Zafarnama.

Temuriylar davrida Chag‘oniyon va Termiz muhim o‘rin tutgan. Lekin Chag‘oniyon viloyatining Temuriylar davridagi tarixi hanuzgacha biror-bir mukammal tadqiqot olib borilmagan. Chag‘oniyon haqida arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilgan. Movarounnahrda o‘z hokimiyatini uzil-kesil o‘rnatish uchun hal qiluvchi jang arafasida — 1370 yil mart oyining oxirida Amir Temur keyinchalik Sayyid Baraka nomi bilan mashhur bo‘lgan Sayyid Muhammad al-Madininiy bilan uchrashadi. Bo‘lajak piru murshidning muloqotida Sohibqiron o‘sha zamon sayyidlarining eng ulug‘ peshvosi qolidan xurmat ramzi — nog‘ora va bayroqni olib, uning doiy hayratiga sabab bo‘ladi. Shundan keyin sayyid Amir Temurga buxor kelajagining boshqaruv kalitini: «Muborak tini ulish dami g‘usl parvardigore belgilaridan kimsa va uning cheksiz inoyatining tarjimonidir», — degan iltifot bilan taqdim etadi. Bu haqda «Muborak tini ulish — barcha inoyatlarning boshi» — deb eslaydi Sharafiddin Ali Yazdiy.

Ilmiy doiralarda ham keng jamoatchilik orasida Sayyid Baraka shaxsiga qiziqish ortib, uning yurtimizga kelish sabablari haqida turli fikrlar bildirilmoqda. Ulardan biriga ko‘ra, Sayyid Baraka islom dunyosining ikki muqaddas shahri — Makka va Madina vakillari, ya‘ni

belgilangan miqdordagi to‘lovlarni undirish uchun kelgan. Amir Temur tomonidan ko‘rsatilgan benihoya katta iltifot natijasida sayyid uning davlatida qolishga qaror qiladi. Fikrimizcha, bu talqin haqiqatga yaqin bo‘lsa kerak. Dastlabki uchrashuvning Termizda bo‘lishiga sabab shundaki, Sayyid Baraka o‘zi kabi payg‘ambar avlodlari xonadoniga mansub Termiz sayyidlari oldiga kelishi tabiiy holdir.

Shuningdek, bu borada, Termiz sayyidlari xonadoni asoschisi Xasan al-Amirning bobosi Madina hokimi bo‘lganligini alohida qayd qilish kerak.

Yuqorida eslangan A‘lo al-Mulukning oltinchi, yettinchi, sakkizinchi o‘g‘illari Alouddin, Abul Ma‘ali va Ali Akbar doimo Amir Temur bilan birga bo‘lganlar. Masalan, Abul Ma‘ali va Ali Akbar Xorazmga qilingan yurishlarida qatnashgan. Shunday tadbirlardan birida Sohibqironning Termizda bo‘lgan munosabati yuzida mujassamlashtirilgan bir voqea bo‘lgan. Xuddi Movarounnahr bilan muhim turgan bir kazo Urganch shahri bo‘lgan Shimoliy Xorazm Oltin O‘rdara, markazi Kat qal‘asi bo‘lgan Janubiy Xorazm Chig‘atoy ulusiga qaragan. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishidan oldinroq Shimoliy Xorazmda sufyilar sulolasi hukmronligi o‘rnatiladi. Keyinroq ular Janubiy Xorazm erlarini bosib oladilar. Amir Temur Xorazmni Movarounnahrning ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun ham Sohibqiron sufyilar sulolasi Kat va Xivani bosib olgach, ularga qarshi urush e‘lon qiladi. 1370—1388 yillarda Amir Temur Xorazmga besh marta yurish qiladi. Har safar qarshi harakatlar sulh bilan tutar, lekin ko‘p o‘tmasdan ular sulh shartlarini buzib, yana harakatga o‘tar edi. Shunday yurishlardan biri 1379 yilda kechadi. Bu safar sharoitda Xorazm hokimi Yusuf Sufi Amir Temurga itoatga jur‘at qilmaydi. Sohibqiron taklif etgan an‘anaga binoan jang maydoniga bir piyola kovun yuboradi. Amir Temur esa unga nisbatan Termizdagi jangchilar tabiatiga monand tarzda, uning raqibiga kovun yuboradi. U esa kovunni suvga uloqtirib, patninsin mulozimlaridan biriga sovg‘a qiladi. Amir Temur Yusuf Sufiyga Termizdan keltirilgan kovunni yuborib, unga nomardlik qilib jang maydoniga chiqmaganligi sababli, nomaqbul hatti-harakatiga chuqur ramziy ishora qiladi. Bu imoda mardlar shahridan kelgan kovunni eb, se-nga ozgina mardlik jo‘ksin tadbiridagi shama yetar edi. Bu voqeda Amir Temurning botirligi bilan chuqur zakovati hamda Termizga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. Bu voqeani tahlil qilib, V. V. Bartold Amir Temurning dovyurakligini, shaxsiy jasoratini ta‘kidlab, uni Yevropa ritsarlari bilan qiyoslaydi .

Shu o‘rinda aytish mumkinki, Amir Temur Hindiston yurishidan qaytganda, Amudaryodan kechib o‘tib, Termizda qoldi. Yakshanba va dushanba kunlari Termizda qo‘noq qildilar. Kelib chiqishi payg‘ambar xonadoniga bog‘liqligi shubha ostida bo‘lib, endilikda oqlangan xonzoda Aloulmulk hazratlariga to‘y berib, unga munosib hadyalar berildi. Mazkur oyning uchinchi shanba kunidan to yigirma uchinchisigacha Termizdan ko‘chib, yigirma sakkizinchi yakshanba kuni Dilbarjin mavzei zafaryor qo‘shin o‘rdugohi bo‘ldi .

O‘sha paytda Andxud tomondan Sayyid Barakaning avlodi boshlig‘i va Movarounnahr mintaqasidan Termiz xonzodalari hamda islom shayxlari Xoja Abdulla, Xoja Asomiddin, Xoja Afzal Keshiy, Keshning shayxulislomining o‘g‘illari Xoja Abdurahmon va Xoja Abdulhamid humoyun o‘rduga keldilar. Muhammad Sulton Mirzo ta‘ziyasi marosimini o‘tkazdilar .

G‘alabayor qo‘shin tez sur‘atlar bilan yo‘l bosib, Termizdagi Amuya kechuvidan o‘tdilar. Xonzoda Aloulmulk Termiziyning uyi humoyunning qo‘noq joyi bo‘ldi. Xonzoda esa to‘y lavozimlari va sovg‘a-salomlarni taqdim etdi .

Xoja Hasan Attor janoblari xoja Alouddavla Attorning o‘g‘lidir va ulug‘ shayxlar tizimida o‘rin tutgan bo‘lib, vafoti Hijoz safari asnosida 826-yil Sheroz shahrida ro‘y berdi va sahobalari jasadini ul viloyatdan Chag‘oniyonga keltirib dafn qildilar .

Jumladan, XIV asrning 90-yillarida naqshbandiya tariqatining yirik namoyondasi xoja Alouddin Attor Buxorodan Chag‘oniyonga keladi. Shu vaqtdan qadimgi Chag‘oniyon yaqinida yangi qishloq- Dehnav tashkil topgan edi. Dehnav (hozirgi Denov shahri) XVIII – XIX asrlarda shu nomdagi beklik markaziga aylandi. Uning qo‘rg‘oni va madrasasi hozirgacha saqlangan (madrasa qayta ta‘mirlandi).

Xoja Alouddin Attor umrining oxirgi o‘n yilini ana shu Dehnavda o‘tkazdi, naqshbandiya tariqatini targ‘ib qilib, atrofiga muridlarini jamladi. U o‘zining naqshbandiya tariqati nazariyasiga bag‘ishlangan asarini ham Chag‘oniyonda yozgan. Temuriylar davrida Chag‘oniyon tasavvuf va ma‘rifat ahli yig‘iladigan ma‘naviyat maskanidan iborat bir joy bo‘lgan . Chag‘oniyon Temuriylar davrida xalqaro savdo yo‘lida joylashganligi haqida yozma manbalar bor. Mirzo Shohrux davrida Termiz gullab yashnagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur, Zahriddin Muhammad Boburnoma: [O‘rta yoshdagi maktab bolalari uchun] / [Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev: Muharrir A. O‘ktam]. - T.: Yulduzcha, 1989. ---368 b
2. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do‘st, fors tilidan tarjimon Hazratqulov J, Bekjonov I, T., <O‘zbekiston>, 2013
3. Xidirov A. Chag‘oniyon tarixi. - Toshkent islom universiteti, 2002. 208 b
4. Jaloliddin Mirzo Termiz tarixi. T.: ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001
5. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma “Yangi asr avlodi”, 2023. -576 b.
6. Nizomiddin Shomiy Zafarnoma -T.: ”O‘zbekiston”, 1996. -528 b.